

## Uchar baliqchalar Kxmer xalq ertagi

Kambodjada, Kampongsaom ko'rfazidagi iliq suvda uchar baliqchalar bo'larkan. Bu baliqchalar qanday qilib uchadigan bo'lib qolishgan ekan? Bu haqda Kxmer qariyalari bunday hikoya qilishardi.

Qadim-qadim zamonda ko'rfaz bo'yida ikki kambag'al aka-uka baliqchi yashagan ekan. Ulaming xotinlari bo'lgan ekan: kattasining xotini aqlli va mehnatkash, kichiginiki dovdir, ishyoqmas ekan. Bir kuni kattasining xotini eriga:

- Biz ikkalamiz ertayu kech mehnat qilamiz, shunga qaramay birimiz ikki bo'lmayapti. Aytishlaricha, dengiz tagida marvarid behisob emish. Keling, dengiz suvini oxirigacha oiib tashlab marvaridlarni yig'ib olamiz. Shunda bizlar birdaniga boyib ketamiz! - debdi.

Xotinining gapi eriga ma' qul tushibdi. Ular kallayi sahardan turib, o'zлari bilan kokos daraxtidan yasalgan katta cho'michlarini olib, ko'rfazga chiqishibdi. Qiig'oqqa o'tirib olib Kampongsaom ko'rfazidagi suvni cho'michlab ola boshlashibdi. Ular tong otgandan kun botgunga qadar mehnat qilishibdi. Bir vaqt suvdan keksa dengiz qisqichbaqasi suzib chiqib:

- Sizlar nega ko'rfazimizdagi suvni cho'michlab olib qurityapsizlar?-deb so'rabdi.

Er-xotin baravariga:

- Dengizni quritib, uning ostidagi hamma marvaridni yig'ib olmoqchimiz, - deyishibdi. Ular bir oz nafaslarini rostlab olganlaridan so'ng yana ishga kirishibdilar.

Keksa qisqichbaqa suv ostiga sho'ng'ib, bu gapni darhol dengiz shohi - ajdahoga yetkazibdi. Ajdaho suv betiga suzib chiqib, er- xotinnning berilib ishlayotganini o'z ko'zi bilan ko'rganidan keyin qo'rqb ketibdi. Ish shunday ketaversa, er-xotin ko'rfazdagi suvni quritib, so'ng dengizga ham o'tadilar. Uning butun sultanatiyu va undagi hayot suvsiz to'xtaydi.

Shunda ajdaho o'zining qo'l ostidagilarga:

- Darhol hammangiz dengiz ostiga tushib, bir donadan marvarid olib, qirg'oqqa qo'yib kelinglar! - deb buyuribdi.

Baliq, meduza, qisqichbaqa, shilliqqurtlar - barcha dengiz mavjudotlari buyruqni bajarishga shoshilibdilar. Har biri dengiz tagidan qirg'oqqa katta marvarid donasini olib chiqqa boshlabdi. Er-xotin cho'michlarini marvaridga to'ldirib uyga qaytishibdi.

Bu voqeadan ukasining xotini xabar topib, eriga:

- Biz ham dengiz ajdahosini qo'rqtib ko'raylik-chi, zero u bizgayam marvarid uyumini in'om etib qolsa!- debdi.

Ular ham jom ko'tarib dengizga borishibdi-da, suvni jomlab bo'shata boshlashibdi. Bir jom, ikki jom... Jomlab suvolishulamingjoniga tegibdi. Dangasa xotin jomni bir yoqqa uloqtirib, eriga:

- Sen ishlab tur, men birpas dam olib olay! - debdi.

Bundan erining jahli chiqib ketibdi:

- Hali mening bir o'zim ishlaymanmi? O'zing boshlab, o'zing tashlaysanmi?

Bir vaqt ular aytishib qolibdi. Bora-bora janjalga aylanibdi, Ikki o'rtada to's-to'polon ko'tarilibdi. Shovqinni eshitib dengiz jonivorlari suv betiga, ba'zilari qirg'oqqa sudralib chiqib, er-xotinning urishini tomosha qila boshlashibdi. Katta

baliqlar esa kulgidan o'zlarini to'xtatolmay dumlarini suvgaga urarkan, kichiklari esa er-xotinning janjalini yaxshiroq ko'rib olish uchun sabrsizlik bilan suvdan chiqisharkan.

Oxiri dengiz tubidan ajdahoning o'zi suzib chiqibdi U erining sochidan yumdalab tortayotgan xotinni, xotinining boshiga jom bilan daranglatib urayotgan erni ko'ribdi-yu, xaxolab kulib yubor ibdi. Dengiz xoqonining kulgisidan suvlar chayqalib, to'lqinlar qirg'oqqa kelib urilibdi.

Er-xotin dengizning kuchli chayqalishidan qo'rqb ketib, marvarid ham eslaridan ko'tarilibdi, janjalkash dangasalar uylariga qarab ura qochib qolishibdi. Kampongsoom ko'rfazidagi sinchkov baliqchalar shu kunlarda ham er-xotinning urishi bo'lmayaptimi, bir tomosha qilardik-da, deb suvdan uchib chiqib qarashni kanda qilmasmish. Ko'pincha qirg'oqda nima bo'layotganini bilishni istab janubiy dengizlardan ham bu ko'rfazga baliqchalar suzib kelisharkan. Ularni uchar baliqchalar deyishlarining boisi shunda ekan.

Uzoq sharq kitobidan.